

Date: 13th September-2025

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "BAHO" KONSEPTINING NAZARIY TADQIQI

Aminova Amira O'Imas qizi

Nishon tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada konseptga berilgan bir necha ta'riflardan kelib chiqib, o'rganish obyekti bo'lgan "baho" konsepti lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Aksiologik baho va uning o'rganilishiga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy ishlarning bir nechta misol tariqasida keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada o'zbek tilshunosligida lingvistik baho va uning ifodalanishiga bag'ishlangan bir nechta ilmiy izlanishlar mohiyati qisqacha yoritilgan. Shuningdek, "baho"da konsept darajasiga ko'tarilish xususiyati mavjudligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konsept, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvistik baho, aksiologik baho, baho munosabati, subyektiv baho, ijobiy baho, salbiy baho.

Аннотация: В статье проводится лингвокультурологический анализ концепта «оценка», являющегося объектом исследования, на основе нескольких определений этого концепта. Aksiologicheskaya ocenka i issledovaniya po ee izucheniyu privodyatsya kak primery neskol'kikh nauchnykh rabot. Krome togo, v stat'ye obobshchayetsya suzhnost' neskol'kikh nauchnykh issledovaniy po lingvisticheskoy ocenke i ee vyrazheniyu v uzbekskoy lingvistike. Takzhe otmechayetsya, chto «ocenka» imet vozmozhnost' podnyatsya do urovnya konceptii. V dannoy stat'ye obobshchayetsya su'ny neskol'kikh nauchnykh issledovaniy lingvisticheskoy ocenki i ee vyrazheniya v uzbekskoy lingvistike. Takzhe otmechayetsya, chto «ocenka» imet vozmozhnost' podnyat' do urovnya koncepta.

Ключевые слова: концепт, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, лингвистическая оценка, aksiologicheskaya ocenka, ocenochnyy podkhod, sub'yektivnaya ocenka, polozhitel'naya ocenka, otritsatel'naya ocenka.

Annotation. In this article, the concept of "assessment", which is the object of study, is analyzed from a linguocultural point of view, based on several definitions of the concept. Axiological evaluation and research on its study are cited as examples of several scientific works. In addition, the article summarizes the essence of several scientific studies on linguistic evaluation and its expression in Uzbek linguistics. It is also noted that the "assessment" has the ability to rise to the level of the concept.

Key words: concept, cognitive linguistics, linguoculturology, linguistic assessment, aksiological assessment, assessment approach, subjective assessment, positive assessment, negative assessment.

Konseptlar – bu milliy-madaniy ma'nolar yig'indisi, Y.S.Stepanov so'zlari bilan aytganda, "madaniyat yacheykalari"dir. Ularni o'rganish xalqning dunyoni idrok etish xususiyatlarini aniqlashga, olamning konseptual va milliy manzaralarini ko'rsatib berishga yordamlashadi. R.M.Frujkina qarashida konsept madaniyat kategoriyalarida aks etuvchi verballashgan (so'z bilan ifodalangan) tushuncha sifatida aks etadi. V.N.Teliya konseptga



Date: 13th September-2025



lisoniy baho beradi va konsept - bu inson tafakkuri mahsuli va ideali, binobarin nafaqat lisoniy, shuningdek, umuman kishi ongiga xos hodisa, u qayta yaratilmaydi, balki lisoniy ifoda hamda nolisoniy bilim vositasida "butunlay yangicha tashkil topadigan konstruktor (tuzilma) dir deb fikr bildiradi. V.N.Teliyaning bu fikrlari konseptni modellash tirish g'oyasining kelib chiqishiga turtki bo'lgan bo'lishi mumkin. Jumladan, N.Y.Shvedova konsept bu tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi [14, C. 603].

Prof. N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida konsept termini eng ko'p definitsiyaga ega bo'lgan termin ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi ayan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan"[5, B. 9].

O'zbek tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.E.Mamatov kabi yirik tilshunoslar konsept atamasiga batafsil izoh bergan [6]. Bundan tashqari olima D.S.Xudoyberganova konseptga mental tuzilma sifatida qarab, uning ko'p qatlamli, ko'p qirrali ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Konseptning bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon eta olishini shu yo'nalishlarning obykti sifatida tavsiflanayotgani shundan dalolat berishi bilan izohlaydi. Konseptning subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilishini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholaydi. Shuni ta'kidlash joizki, olima bu ilmiy ishida konseptga kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan baho beradi va tahlil jarayonida ham kognitiv konsept tahlili yo'nalishidan boradi [11].

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida aksiolingvistik yo'nalish paydo bo'ldi. Bu lingvistikaning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, tilning jamiyatdagi vazifalari, ahamiyati yanada keng ekanligini bildiradi. Aksiolingvistika ham qadriyatshunoslik, madaniyatshunoslik va tilshunoslik o'rtasida vujudga kelgan.

Tilga aksiolingvistik aspektda yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida Qozon tilshunoslik maktabida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ko'zga ko'rinda boshladi. Jumladan, L.K.Bayramova, G.A.Bagautdinova, G.F.Gibatova, R.J.Yunusova kabilarning bevosita aksiologiyaga doir ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, rus tilshunosligidagi Vorkachev tadqiqotlarida va bir qator monografiyalarda, bundan tashqari, o'zbek tilshunosligida bugungi kunda aksiologik modallik J.Yoqubov, G'.Qambarov, S.Boymirzayeva, Z.Pardayevlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, Z.Pardayevning keyingi yillarda nashr etilayotgan asosiy ilmiy izlanish va maqolalari aksiologik bahoning kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan [7,8]. Aksiologik linvistikadagi asosiy tushunchalardan biri aksiologik yondashuv va aksiologik bahodir. Bu bilish nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, unda insonning olam, odam

Date: 13th September-2025



haqidagi bilimlari ifodalangan bo‘ladi [4, B.197]. Baho ma’nosi obyekt va subyekt munosabatlari asosida yuzaga chiqadi, ya’ni so‘zlovchi (subyekt) obyektidan ta’sirlansa yoki unga o‘z munosabatini bildirish istagi tug‘ilsa, u o‘z fikrini bayon qiladi. Natijada baho munosabati yuzaga chiqadi. Bahoning belgisi obyektga bog‘liq bo‘lib, shu asosda ijobiy, betaraf, salbiy munosabatlardan biri oydinlashadi. Ijobiy yoki salbiy baho betaraf (neytral) ma’noli leksemdan qancha uzoqlashib borsa, ijobiylik va salbiylik ma’nolari shu darajada kuchayib boradi. Bunday ko‘rinishda obyektga ijobiy yoki salbiy baho berish jarayonida darajalanish xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, baho semantik kategoriya ham hisoblanadi. Olima E.Ibragimova amalga oshirgan tahlillardan olingan xulosalar natijasidan kelib chiqqan holda, tilning ifodasida bahoning quyidagi ta’rifini taklif etadi: baholash mulohazasi – bu subyektning atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etuvchi hamda obyektiv va subyektiv omillar yig‘indisi bilan tavsiflangan fikr hisoblanadi, modomiki, bunda baho asosiy kommunikativ mazmun sifatida ishtirok etadi.

Tilshunos olimlardan yana biri E.Ibragimovaning “O‘zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi”, “Lingvistik baho – aksiologik tadqiqot obyekt sifatida” kabi qator ilmiy ishlarida baho, uni ifodalovchi leksik vositalar, bahoning estetik fuksiyasi haqidagi fikrlar bayon etilgan. O‘zbek tilshunosligida baho munosabatiga doir qilingan eng yirik ilmiy izlanish G‘.S.Qambarov nomi bilan bog‘liq. Uning “Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida)” ilmiy dissertatsiyasi bahoga lingvistik kategoriya sifatida yondashishning ilk qadami bo‘ldi [9].

O‘zbek tilshunosligida subyektiv baho ifodalanishiga oid bir qator ishlar mavjud mavjud bo‘lib, ulardan biri Z.Isaqovanning ushbu masalaga doir maqolasida ingliz va o‘zbek tillarida subyektiv bahoning leksik va fonetik sath birliklari yordamida ifodalanishi ochib berilgan. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, baho kategoriyasining til va nutq tarkibida qo‘llanishi juda qiziqarli va tadqiq talab masala ekanligini ta’kidlab, bunda so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari aniq nutqiy jarayonda qo‘shimcha vositalar orqali yanada kengroq mazmun kasb etishi, bu so‘zlarga xos ijobiy yoki salbiy subyektiv baholarini namoyon qilish imkoniyatini berishini yozadi[2, B. 41-43].

O‘z-o‘zini baholash aktida so‘z turkumlarining tutgan o‘rni masalasi S.A.Yadgarova tomonidan o‘rtaga tashlandi. U baho aktini ifodalashning morfologik vositalari sirasida barcha mustaqil so‘z turkumlarini nazarda tutish mumkinligini ta’kidlab, shunday yozadi: “So‘z turkumlari tabiat voqea-hodisalarini, mavjudotlar va ularning xususiyatlarini, harakatlari va holatlarini nominativ xarakterda atab keladi. Nutq vaziyati talabi bilan bu nomlar bir vaqtda subyektning o‘zgaga yoki o‘z-o‘ziga bergan bahosiga aylanishi mumkin. Ushbu bahoviy propozitsiya ko‘magida kommunikativ vaziyatning muayyan intensiyaga oid illokutiv funksiyalarini o‘zida tashuvchi pragmatik aktlar hosil bo‘ladi” . Olimaning bu fikrlari “baho” va “baholash”ni nafaqat kognitiv, lingvokulturologik nuqtayi nazardan balki pragmalingvistik jihatdan ham tadqiq etish imkoniyati mavjudligini isbotlaydi [12, B. 89-93].

R.S.Ibragimova o‘zining “Fransuz va o‘zbek tillarida AYOL konseptining lingvokognitiv tadqiqi” dissertatsion ishida o‘zbek tilida 365 ta gender komponentli

Date: 13th September-2025



maqollar mavjud bo'lib, ularda AYOL konsepti bilan bog'liq ijobiy va salbiy munosabatlar o'z ifodasini topganligini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchining fikriga ko'ra, o'zbek tilida so'zlashuvchilar idiolektida ayolning ichki go'zalligi uning tashqi go'zalligiga nisbatan ustun qo'yiladi [3].

M.M.Raxmatovanning "Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari" tadqiqot ishida ingliz, o'zbek va tojik tillari maqollarida aks etgan "go'zallik" konsepti doirasida go'zallik prototip ma'nolarining botiniy go'zallik, zohiriy go'zallik, muhit, hodisa, predmet go'zalliklari kabi aksiologik xususiyatlari asoslangan. Tadqiqotchining "O'zbek maqollarida "go'zallik" konseptining ifodalanishi", "Estetik baho til hodisasi sifatida ifodalanishi", "O'zbek lisoniy ongida estetik baho ko'rinishlari: go'zallik va chiroy" kabi bir qator ilmiy izlanishlarida aksiologik bahoning estetik vazifasi ochib berilgan bo'lib, "go'zallik" konseptining o'zbek xalq maqollarida baho tashuvchi vazifasi mavjudligi qayd etib o'tilgan [10]. Shuni ta'kidlash lozimki, konsept haqida so'z yuritilar ekan, aksiologik bahosiz uni ifodalash, tavsiflash mumkin emas. Ma'lum voqea haqida fikr yuritganda unga yoki ijobiy yoki salbiy munosabat bildiriladi. Bunday munosabatning o'zi bahoni yuzaga chiqaradi. Demak, har bir kishi baholash qobiliyatiga ega va uning bahosi turli vositalar yordamida yuzaga chiqadi.

Zumrad Shukurova insoniyat uchun abadiy tuyg'ulardan biri bo'lmish "muhabbat" konseptini tahlil qilar ekan, u o'zida ijobiy (xursandchilik, quvonch, taqdirning sovg'asi) va salbiy baho (qayg'u, rad etilish, ushalmagan orzu) tashishini ta'kidlab o'tadi. Tilshunos "muhabbat" konseptini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etib, inson tasavvuridagi o'rnini belgilashda uning maqollarda aks etishiga ham e'tibor qaratadi [13].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aksiologik baho har bir konseptda o'z-o'zidan namoyon bo'lar ekan, demak, "baho" konsept darajasiga ko'tarila oladi. Salbiy, ijobiy va neytral baholarning umumlashmasi "baho" konseptining asosini tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida "baho" konseptining turli jihatlarini tadqiq etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibragimova E. O'zbek tili leksikasining aksiologik tadqiqi (o'quv-uslubiy qo'llanma). Farg'ona, 2018.
2. Isaqova Z. Ingliz va o'zbek tillarida subyektiv bahoning ifodalanishi.//Til va adabiyot ta'limi. – 2019. 2-son, - B. 41-43.
3. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.
4. Komilova G. O'zbek maqollarining aksiolingvistik tahlili. Til va adabiyot tadqiqotlari I O'zbekiston Respublikasining Turkiy kengashga a'zo bo'lganiga bag'ishlanadi. – Karabuk, 2020.
5. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.
6. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –

Date: 13th September-2025

Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф.

7. Пардаев З. Тилшуносликда баҳо концепти ва унинг ўрганилиши ҳақида // Ўзбек тилшунослиги ХХІ асрда (Номшунос олим профессор Тўра Нафасов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-назарий анжуман материаллари).- Қарши, 2008. 214-220-б.

8. Пардаев З. Баҳо категорияси ва унинг фанлараро муносабати // Р. Қўнғуровнинг илмий мероси ва ўзбек тилшунослиги масалалари.- Самарқанд, 2008. 78-б.

9. Qambarov G'. S. Baho munosabati va uning o'zbek tilida ifodalanishi. Filol.fan.nomz. diss.avtoref. –Т., 2008.

10. Рахматова М. М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида «гўзаллик» концептининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. –Бухоро, 2019.

11. Худайберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фанлари д-ри ...дисс. -Т., 2015.

12. Yadgarova S.A. O'z-o'zini baholash aktida mustaqil so'z turkumlarining o'rnini (o'zbek tili materialida). Monografia pokonferencyjna. – Baku, 2018. –B. 89-93.

13. Shukurova Z. Main concepts and features of cognitive linguistics and linguaculturology. www.journal.fledu.uz

14. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

